



UO'K: 632.7.76

BEDANI BARG FILCHASIDAN (*PHYTONOMUS VARIABILIS* HBST) HIMOYA QILISH

Boltayev Botir Safarovich

q.x.f.n, professor

Ablazova Moxichexra Mirakbarovna

q/x.f.f.d., dotsent

Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna

q/x.f.f.d., dotsent

Ibragimova Munira Shuhratovna

magistrant

Toshkent davlat agrar universiteti

Annotatsiya. Bedazorlarda kuzda agrotexnik tadbirlar (yerlarni boronalash, o'simlik qoldiqlarini yo'q qilish va h.k.) ni qo'llash bilan bir qatorda zichlovchi ekin (g'alla va b.) urug'ini ekish bedaga fitonomus va boshqa zararkunandalarni (tugunak uzunburuni, beda qandalasi, beda urug'xo'ri va b.) zararini oldi olinadi, qo'shimcha ekologik toza yem-xashak hosili olinadi. Texnologiya juda oddiy resurs tejankor, bo'lib organik-ekologik talablarga javob beradi.

Kalit so'zlar: beda, yem-xashak, zichlovchi ekin, fitonomus, zararkunandalar, ekologik toza, qo'shimcha hosil, agrotexnik, entomofaglar, foydali hasharotlar.

Аннотация. Осен посев семян плотной культуры (зерновые и т.д.) а также применение агротехнических мер (боронование, уничтожение растительных остатков) в позволяет предотвратит повреждение фитонмуса и от других вредителей, обеспечивается получение дополнительный экологически чистый кормовой урожай. Технология очен простая с точки зрения ресурсо сбережения и соответствует органо-экологическим требованиям.

Ключевые слова: люцерна, корма, плотные культуры, фитонмус, вредители, экологическая чистая, дополнительная культура, агротехнические, энтомофаги, полезные насекомые.

Abstract. Autumn sowing of dense crop seeds (grains, etc.) and the use of agronomic measures (harrowing, destruction of plant residues) helps prevent damage to the phytonomus and other pests, ensuring an additional, environmentally



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

friendly forage crop. This technology is very simple in terms of resource conservation and meets organic and ecological requirements.

Keywords: alfalfa, feed, dense crops, phytonomus, pests, environmentally friendly, supplementary crops, agronomic, entomophages, beneficial insects.

KIRISH

Respublika mustaqilligining ilk davrlarida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash maqsadida ekinlar strukturasi keskin o'zgartirilib, sug'oriladigan yerlarni teng yarmiga boshqoli don ekinlari, qolgan teng yarmiga g'o'za ekilishi hisobiga beda, chorva uchun ozuqabop ekinlar maydoni qisqartirildi. Bu tizim shu kungacha o'zining favqulotdalik funksiyasini bajarib kelmoqda. Natijada bu tizimni o'ziga xos kamchiliklari ya'ni tuproq unumdorligiga juda yuqori darajada bosim o'tkazilayotganligi, tuproqqa qaytarilish qonuniyatini buzilishi, chorvachilikka kafolatli ozuqa yetishtirish muammosini keltirib chiqarmoqda va bu muammolar hozirda o'z yechimlarini kutmoqda.

Hammaga ma'lumki, beda chorva mollari uchun eng oqsilga boy va to'yimli yem-xashak ekini hisoblanadi. Beda ekilgan yerning unumdorligi oshib boradi, chunki uning ildizida simbioz yashovchi havodan azot yig'uvchi bakteriyalar mavjud. Bundan tashqari, beda ekilgan yerda g'o'zaning eng xavfli kasalligi-vilt (Virtitsillioz, fuzarioz) kamayib boradi (Mirpo'latova, 1967; Aliyev, 1979; Xo'jayev, 2015) hamda bedazorlar foydali hasharotlar-entomofaglar, changlovchi hasharotlarni asosiy yig'iladigan joyi ham hisoblanadi.

Biroq muammo shundaki bedaning eng serhosil birinchi o'rimi hosilini beda barg filchasi (*Phytonomus Variabilis* Hbst) zararkunandasi ta'sirdan rivojlanishiga katta to'siq bo'lmoqda.

Olimlarning aniqlashicha bedaning poyasida bir dona fitonomus lichinkasi bo'lsa gektaridan 17.2 s hosil (xashak 4.56 s) yo'qolishi aniqlangan. (Yaxontov, 1962; Odilov, 1995; Shomuratova, 1999). Ammo lichinka soni bundan bir necha baravar ko'p bo'lib yem-xashak yo'qolishi o'rtacha 65% ni tashkil etmoqda.

Fitonomus bedaning nafaqat miqdor jihatdan kamayisiga, uning sifati buzilishiga, tarkibidagi yog' va oqsil miqdorlariga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Fitonomus bilan zararlangan bedada yog' miqdori 3.6% o'rniga 2% ga, oqsil 16,8% o'rniga 9,8% ga tushadi. Odatdagi 45 s xashak o'rniga 16 s xashak yetishtiriladi. Birinchi o'rimda gektariga 754 kg oqsil o'rniga 157 kg, 163 kg yog' o'rniga 32 kg yog' olinadi (Yaxontov, 1961; Polevshikova, 1962; Maxmudxo'jayev, 1999; Xo'jayev, 2015-2017).

Bedazorlarda ekinni himoya qilishda asosan agrotexnik (yerlarni disklash, boronalash, bostirib sug'orish) va kimyoviy usullar (insektitsidlar) qo'llash tavsiya etiladi, ya'ni bedani poya tortish davrida qo'ng'izlariga va shonalash davrida lichinkalariga qarshi turli kimyoviy guruhlarga mansub preparatlar (detsis, sumitsidin, sipermetrin, karate, karbofos, talstar, deltofos va b.) bilan ishlov berish tavsiya etiladi. Biroq bedazorlar, foydali-changlovchi (asalarilar) va entomofaglar



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

(xonqizi, oltinko'z, parazit yaydoqchilar va b.) ning asosiy yig'ilish joyi bo'lgani uchun bu preparatlar tabiatga, bioxilma-xillikka juda katta ziyon yetkazadi. (Xo'jayev 2006-2017; Shamuratova, Xo'jayev, 2006 va b). Bu holat biologik usulni qo'llashga katta to'siq bo'ladi.

Bundan tashqari, pestitsidlar ayrim holatlarga chorva mollarini zaharlanishiga olib keladi, ulardan olinadigan mahsulotlarida insonlar uchun zaharli pestitsid qoldiqlari qoladi.

Yuqoridagilarni inobatga olib bedazorlardan mo'l yem-xashak hosili olish uchun Toshkent davlat Agrar universitetining O'simliklarni himoya qilish kafedrasida "Yem-xashak ekinlarini beda barg filchasi (*Phytonomus Variabilis* Hbst) dan himoya qilish innovatsion texnologiyasi" sinovdan o'tkazildi.

Tadqiqot maqsadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi bedazorlardan fitonomus va boshqa ashaddiy zararkunandalarning zararini tabiiy usullardan foydalanib kamaytirib mo'l va ekologik toza yem-xashak hosilini yetishtirishdan iborat. Buning uchun quyidagilarni vazifa qilib qo'ydik.

1. Bedazorlarga kuzda yerga yuza ishlov berish (diskalash, boronalash) orqali zichlovchi ekinlar (bug'doy, arpa, sulii, javdar, tariq, tritikali, ko'k no'xat va b.) ekib ularning fitonomus va boshqa zararkunandalarga ta'sirini o'rganish;

2. Kuzda, qishda, erta bahorda bedazorlarda fitonomus va boshqa zararkunandalar qishlashi, tarqalishi, rivojlanishi va zarar yetkazish xususiyatlarini tadqiq etish;

3. Bedazorlarda zichlovchi ekin ekish texnologiyasini qo'llashning xo'jalik samaradorligi aniqlash;

4. Bedazorlarda zichlovchi ekin ekishning foydali entomofauna, entomofaglar va boshqa hasharotlarga ta'sirini o'rganish;

5. Zichlovchi ekin ekish texnologiyasini bedazorlardagi ikkilamchi zararkunandalar rivojlanishi va zarariga ta'sirini o'rganish.

MATERIALLAR VA USLUBLAR

Tadqiqotlar yilning hamma faslida olib borildi. Erta bahordan kech kuzgacha zararkunandalarning qishlash, urchish darajasi dinamika soni o'rganilib, rivojlanish fenologik kalendari tuzilib migratsiya jarayonlari o'rganildi.

NATIJALAR VA MUNOZARA

Tadqiqotlar natijasida zichlovchi ekin ekishning fitonomus va boshqa zararkunandalar hamda entomofaglarga ta'siri o'rganildi. a) Bedazorlarda zichlovchi ekin ekish texnologiyasini qo'llash yuqori, sifatli yem-xashak hosili va beda urug'ini olishi ta'minlanadi; b) Entomofaglar va changlovchi hasharotlar uchun mutlaqo zarar yetmaydi, aksincha ularning rivojlanishi va ko'payishi uchun qulay sharoit yaratiladi.

Tavsiya etilayotgan texnologiyalar juda sodda oson bo'lib uni qo'llash ortiqcha mehnat va harajatlar talab qilmaydi. Uni barcha chorvachilik va





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

parrandachilik klister dala maydonlarida, aholi tarmoqlarida bemalol qo'llash mumkin. Uning atrof-muhitga, bio xilma-xillikka zarari yo'q, aksincha organik dehqonchilik talablariga javob beradi hamda biologik kurash usulini samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Biroq muhimi, chorvachilik uchun ko'p miqdorda ekologik toza va to'yimli yem-xashak olishga erishiladi.

Hulosalar. Bada barg filchasi (*Phytonomus variabilis* Hbst.) yem-xashak ekinlari, ayniqsa beda uchun eng xavfli zararkunandalardan biri hisoblanadi. Ushbu hasharot o'simlikning yosh barglari, kurtaklari va generativ organlarini zararlab, hosildorlikni keskin kamaytiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, zararkunanda kuchli rivojlanganda beda hosilining 60–65 % gacha yo'qotilishi mumkin.



1-rasm. Bada barg filchasi va uning bedadagi zarari

Beda barg filchasining biologik xususiyatlari, xususan, tez ko'payishi, lichinkalarining barg to'qimalarida yashirin rivojlanishi va qishlash qobiliyati unga qarshi kurashishni murakkablashtiradi. Shu sababli, unga qarshi kurashda yagona usul emas, balki integratsiyalashgan himoya tizimini qo'llash muhim ahamiyatga ega.

Ilmiy asoslangan kurash choralari quyidagilarni o'z ichiga oladi: agrotexnik tadbirlar (erta bahorgi boronalash, sug'orish rejimini to'g'ri tashkil etish), biologik usullar (entomofaglardan foydalanish), hamda kimyoviy himoya vositalarini o'z vaqtida qo'llash. Ushbu choralarni kompleks holda qo'llash zararkunanda sonini iqtisodiy zarar yetkazish chegarasidan past darajada ushlab turish imkonini beradi. Shunday qilib, beda barg filchasiga qarshi samarali kurashish yem-xashak ekinlarining hosildorligi va sifatini saqlab qolishda muhim omil bo'lib, qishloq xo'jaligida barqaror ishlab chiqarishni ta'minlashga xizmat qiladi.

**ADABIYOTLAR**

1. Xo'jayev Sh.T., va b. O'simliklarni zararkunandalardan uyg'unlashgan himoya qilishning zamonaviy usul va vositalari. "Navro'z" nashriyoti, Toshkent-2015, 552-b.
2. Jononova R.N., Tufliiev N. Beda barg filchasi (*Phytonomus variabilis* Hbst.) ga qarshi kurash choralari. – T.: 1998.
3. Ivanov I.A. Люсерна. – Moskva: Kolos, 1980. – 349 s.
4. Artoxin K.S. Энтомосеноз люсерны: мониторинг и управление. – Rostov-na-Donu, 2000.
5. Yaxontov V.V. Экология насекомых. – Moskva: Visshaya shkola, 1969.
6. Atabeki A.E. Beda barg filchasi biologiyasi, ekologiyasi va qarshi kurash choralari. – 2015.
7. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Beda barg filchasi maqolasi.
8. Qomus.info. Beda barg filchasi haqida ma'lumot.
9. Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi. Fitonomusning zarar darajasi va tarqalishi. – 2025.
10. O'quv-uslubiy qo'llanma: Qishloq xo'jalik ekinlari zararkunandalari va ularga qarshi kurash.